

## O'QUVCHILAR O'RTASIDA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

*Eshmurodova Dilbar Suvonqulovna*

*Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani*

*13-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*amaliyotchi psixolog*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilar o'rtasida sog'gom psixologik muhitni yaratish yoritilgan bo'lib, unda psixologlar uchun zarur uslubiy tavsiyalar haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** innovatsion ta'lim, o'qitish metodikasi, sog'gom muhit, e'tibor

...

Barchamizga ma'luki, psixologiya o'qitish metodikasi fanida interfaol usullarri ta'lim jarayoniga qo'llashning psixologik jihatlarini mazmunan yoritishga asoslanadi. O'quvchilar psixologiyasining birgalikdagi munosabat va harakatiga asoslangan o'qitish interfaol o'qitish usuli deyiladi. Individ sifatida alohida o'qiydigan emas, aksincha, guruh bilan birga faoliyat yurituvchi, savollarni o'zaro kelishib bahslashib muhokama qiluvchi bir-birini qo'zg'atib va faollashtirib boradigan o'quvchi va o'qituvchi faoliyati markaziy o'rinni egallaydi.

Interfaol o'qitish usullaridan biri trening hisoblanadi. O'qitishning bu yangi usuli sifatida, birinchidan bizda u haqida ancha vaqtgacha bilishmagan, shunga qaramay g'arberda psixokorreksiya ishlarini bevosita amalga oshirish maqsadida kichik guruhlarda tuzilgan va maxsus munosabat tashkil etish usuli sifatida tarqalgan. Ikkinchidan u psixologiya yoki boshqa fanlarni yangi o'qitish usuli hisoblanmagan, hatto hozir ham shunday bo'lib ulgurgani yo'q. Zero, ba'zi maktablarda ijtimoiy psixologiyani o'qitishda trening amaliy mashg'ulotlarda hamkorlikdagi faoliyat jarayonlarini shakllantirish uchun qo'llana boshlaydi. Trening sinflarda vujudga keladigan turli vaziyatlarni o'rgatuvchi hisoblanadi va

shu ma'noda o'quvchilar uchun toia real vaziyat sifatida namoyon bo'ladi va o'z faoliyati natijasiga javobgarlik bilan harakat qilishi kerak. Javobgarlik hissi faoliyatga kirishganda alohida ahamiyatga egadir. Nafaqat o'zi oldinga intilishi kerak, bu individual o'qitishda, hatto, guruhni o'qitishning erkin muhokamasida qo'l keladi, lekin guruhdagi sheriklar bilan oldinga intilishi har bir harakat yutug'i — bu butun guruh faoliyatining yutug'ining garovidir. Darslarda ularni ko'rib chiqib, biz so'z mantiqiy tafakkurimizni o'stiramiz, psixologik kuzatuvchanlikni tarkib toptiramiz.

### **"Bo'sh stul" usuli.**

O'quvchilar bir, ikkiga (juft) bo'linadilar. "Bir" raqamli ishtirokchilar doiraga o'tiradilar, "ikki" raqamli ishtirokchilar esa ularning stullari orqasiga turadilar. Bitta stul bo'sh qolishi kerak. Bo'sh stul orqasida turgan o'quvchining vazifasi - ko'z qarashi bilan o'tirganlarni o'z stuliga taklif qiladi. Buni sezgan stulda o'tirgan ishtirokchi, bo'sh stulga chopib o'tirib olishi kerak. Uning orqasida turgan sheringining vazifasi - uni ushlab qolishga harakat qiladi.



Shunga muvofiq o'qitish metodikasida o'qitishning asosiy konsepsiyalari ishlab chiqilib interfaol usullarni qo'llanilishi mazkur masalalar negiziga asoslanadi.

#### **Mazkur konsepsiyalardan asosiyalar quyidagilardan iborat:**

- a) o'qitish uning shakllarini shakllanishi o'quvchining faoliyati-o'quv faoliyati hisoblanib, bunda o'quvchi bu faoliyatning tashkilotchisi rolida ishtirok etadi;
- b) o'quv faoliyatining predmeti va natijasi faoliyatining subyekti o'quvchi hisoblanadi, u faoliyat hisobiga qayta tashkil bo'ladi predmet sifatida va o'qitish yakunida o'zgartirilgan ko'rinishda namoyon bo'ladi (o'quv faoliyatining natijasi sifatida);

- d) muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash mahoratini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish ilmiy va amaliy muammolarda erkin va mustaqil yo'l topa olishni tushunish hisoblanadi, shu bilan birga bilimlarning fikrlash materiali va vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- e) o'quv faoliyatining birligi o'quv masalasi hisoblanadi. Hayotda yuzaga keladigan boshqa hamma masalalardan uning predmetini o'zgartirishga emas balki amaldagi subyektning o'zini o'zgartirishga birinchi navbatda uning fikrlash harakatlar usullarini egallab olishga qaratilganligi bilan farq qiluvchi o'quv taktikasi hisoblanadi;
- g) bilish rnahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirish — bu aqliy harakatlar hisoblanadi, ular individ tomonidan shakl obraz ko'rinishida tashqi vositalarga tayanilgan holda (predmetlar yordamida yo'l topish yoki so'z bilan yordamlashish) bajariladi va o'quv faoliyati natijasida o'zlashtirilgan, qayta tashkil etilgan «sobiq» tashqi predmetli harakatlardan iborat.

**“Tasavvur kengligi” usuli.**

Bu usul orqali o‘quvchilar nutqi sinovdan o‘tkaziladi.

**Masalan:** Maktabim direktori bo‘lsam...

Agar ko‘cha tozalovchilar bo‘lmasa...

Agar o‘qituvchi bo‘lmasa...

Agar mehr-oqibat bo‘lmasa...



**Maktabda o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni yaratish maqsadida yanaquyidagilar tavsiya etiladi.**

Bunda suhbat usuli ham samara beradi. Bu usul qadimgi grekcha ko'rinishi Suqrot suhbati deb nomlangan o'qitish tizimiga asoslangan. Shu yo'l bilan

mohirona savollar tuzish va o'quvchini qo'yilgan savolga mustaqil ravishda to'g'ri javob topishga yo'naltirish kerak. Bu o'qitish usulini Suqrotnikidan farqi uning keng doirada jonligidir. Lekin uning so'zsiz o'xshashlik tomonlari ham mavjud, o'z tavsifiga ko'ra olinayotgan funksiyasi bevosita ularni faol o'ylash orqali o'quvchilami mohirona savol berishga qaratilganligidir. O'z yo'nalishining psixologik tabiatiga ko'ra — evrestik suhbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoning yechimini izlovchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o'qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb suhbatdan everestik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi. Xullas, ertangi kun mustaqil fikrlaydigan kadrlarni talab etar ekan, bugungi kunda maktablarda faoliyat yuritayotgan amaliyotchi psixologlar ham zamon talabiga mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zinig ish uslubiga qo'llashi, bu boradagi ishlarni davom ettirishi uchun muntazam o'z ishini nazorat qilib borishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G'oziyev E.G va boshqalar "O'spirin psixologiyasi" ToshD.U 1992-yil
- 2.G'oziyev E.G Utanov B "Hamkorlik psixologiyasi" T., Tosh D.U. 1992-yil
3. Internet saytlari: [www.lex.uz](http://www.lex.uz), [www.gov.uz](http://www.gov.uz), [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net), [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)